

## TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN TO'LANADIGAN SOLIQ STAVKALARI VA ULARNING MOLIVAVIY XAVF DARAJALARI

**Tursunqulov Shoxrux**  
TDIU doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida tog'-kon sanoati korxonalarini tomonidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq stavkalari, ularning iqtisodiy mohiyati hamda korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi xavf omillari tahlil qilinadi. Xususan, amaldagi soliq siyosati, stavkalarning differensiallashuvi va bozor kon'yunkturasiga bog'liqligi moliyaviy xavf darajalari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Yer qa'ri, tog'-kon sanoati, soliq stavkasi, soliq davri, rentabellik, fiskal siyosat, affinj, investitsion muhit, moliyaviy risk.

Tog'-kon sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda mazkur soha faoliyati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tartibga solinadi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari resurs turiga, qazib olish hajmiga hamda foydali qazilmaning bozor qiymatiga qarab belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va oliy ta'lim darsliklarida ushbu soliq turi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsada, bu soliq turining tog'-kon sanoati korxonalariga moliyaviy xavfi haqida chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalar yetarlicha keng yoritilmagan. Ayniqsa amaldagi Soliq kodeksining 454-moddasi haqida ham adabiyotlarda juda kam ma'lumotlar mavjud. Shu bois ushbu soliq turining tog'-kon sanoati korxonalaridagi ahamiyati va dolzarbligini nazariy jihatdan asoslash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq — bu tabiiy resurslardan foydalanish natijasida davlatga to'lanadigan majburiy to'lov bo'lib, u fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarni bajaradi. Ushbu soliq turi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XVIII - bo'lim, 64-bob, 449-454 moddalariga asosan undiriladi. Soliq solish obyekti esa: foydali qazilmani qazib olish (ajratib olish) hajmi va haqiqatda realizatsiya qilingan hajmidir.<sup>166</sup>

Qazib olingan foydali qazilmaning hajmi odatda soliq solish obyektidir, ammo haqiqiy hajm qazib olish (ajratib olish), birlamchi ishlov berish, qayta ishlash va transportda tashishning butun texnologik sikli doirasida yuzaga keladigan texnologik yo'qotishlar hajmini chegirilgan holatda aniqlanadi.<sup>167</sup> Bu esa korxonalariga ortiqcha soliq to'lamaslik imkonini yaratadi. Bundan tashqari odatda soliq hisoboti davrida foydali qazilma realizatsiya qilinmasa, oxirgi marta sotilgan narxlarning o'rtacha qiymati olinadi. Biroq, foydali qazilma qazib olish boshlangandan buyon soliq yili davrida sotilmagan bo'lsa yoki qazilma to'laligicha shaxsiy iste'molga ishlatilsa realizatsiya narxlarining o'rtachasidan 20% oshgan summada soliq hisoblanadi va bu korxonalarining moliyaviy mablag'larini yo'qotish xavfini yanada oshiradi.

<sup>166</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 451-moddasi

<sup>167</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 450-moddasi

Sanoat korxonalari uzoq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lganliklari uchun resurslarning ma'lum muddatga uzilishi yoki tanqisligi ularga o'z kapitalini yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi. Shu bois ushbu soliq stavkalarini va undagi o'zgarishlarni bilish muhimdir. Soliq stavkalari foydali qazilma turiga qarab differensiallashtiriladi (masalan, oltin, mis, uran, ko'mir, qurilish materiallari va boshqalar). Qimmatbaho metallar uchun stavkalar odatda yuqoriroq bo'lib, bu davlat byudjetiga tushumlarni oshirishga xizmat qiladi. Soliq (hisobot) davri uchun oltin, kumush, palladiy va platina bo'yicha o'rtacha arifmetik birja narxi soliq organlari tomonidan London qimmatli metallar bozori uyushmasining (London Bullion Market Association, LBMA) ertalabki fiksingi asosida, boshqa metallar bo'yicha esa London metallar birjasining (London Metal Exchange, LME) ma'lumotlari asosida aniqlanadi.<sup>168</sup>

Soliq stavkasining tog'-kon sanoat korxonalari moliyaviy natijalarga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasida ushbu soliq stavkalari jadvali keltirilgan bo'lib, bunda har bir foydali qazilmalar turlarga va turkumlarga bo'lingan holatda stavkalar o'rnatilgan.

Bundan tashqari Soliq kodeksining 454-moddasida Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i ham mavjuddir. Kodeksning **454<sup>3</sup>-moddasiga** asosan: Qazib olingan (ajratib olingan) metallarni yoki uglevodorod xomashyosini realizatsiya qilishdan olingan holda bahoga qo'shimcha qiymat solig'ini va aksiz solig'ini kiritmay aniqlanadigan, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan bahodan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan daromadlar hamda ularni qazib olish (ajratib olish) bilan bevosita bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq renta daromadi deb e'tirof etiladi.<sup>169</sup> Tog'-kon sanoati korxonalari ushbu soliqni Kodeksning 454<sup>5</sup>-moddasiga asosan 25% miqdorda to'laydilar. Korxonalarining affinaj jarayoni ham ma'lum ortiqcha mablag' va resurs talab qiladi.

Yuqori soliq stavkalari korxonalarining sof foydasini kamaytirib, ularning investitsion jozibadorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kapital sig'imi yuqori bo'lgan tog'-kon loyihalarida dastlabki investitsiya xarajatlari katta bo'lgani sababli, soliq yukining ortishi quyidagi moliyaviy risklarni yuzaga keltiradi:

- Likvidlik riski – sanoat korxonalari juda katta aylanma mablag'lar orqali faoliyat yuritishidagi aylanma mablag'lar yetishmovchiligi;
- Rentabellik pasayishi – sof foyda marjasining qisqarishi;
- Investitsion risk – kiritilgan uzoq muddatli investitsion loyihalarning o'zini oqlash muddati uzayishi yoki qaytmasligi;
- Valyuta riski – eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar narxining xalqaro bozordagi tebranishiga bog'liqlik.

Bunday risklarning oshishiga asosiy turtkilardan biri soliq yukining oshishidir.

Moliyaviy risklarni baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq: Soliq yukining umumiy tushumga nisbati; EBITDA va sof foyda ko'rsatkichlari; Qarzdorlik darajasi (Debt/Equity); Ichki rentabellik normasi (IRR). Agar soliq stavkasi bozor narxlarining pasayishi sharoitida qat'iy belgilangan bo'lsa, bu korxonalar uchun yuqori moliyaviy xavf darajasini yuzaga keltiradi. Shu bois, ayrim davlatlarda soliq stavkalarini progressiv yoki moslashuvchan shaklda belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari tog'-kon sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Optimal soliq

<sup>168</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 451<sup>1</sup>-moddasi

<sup>169</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 454<sup>3</sup>-moddasi

siyosati davlat byudjeti manfaatlari bilan bir qatorda korxonalar investitsion jozibadorligini ham hisobga olishi lozim.

Soliq stavkalarini belgilashda: xalqaro bozor narxlarining o'zgaruvchanligi; qazib olish tannarxi; loyiha rentabelligi; moliyaviy risk darajasi kabi omillar inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Natijada, muvozanatli fiskal siyosat tog'-kon sanoati barqaror rivojlanishini ta'minlab, davlat va investorlar manfaatlari o'rtasida optimal nisbatni shakllantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Zamonaviy va yangi O'zbekiston. - Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2024.- 560 b*
2. *Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Asarlar. 1-jild. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".*
3. *Tilovov, T.S. Tog'-kon sanoati iqtisodiyoti. Toshkent:Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.*
4. *Vahobov, A.V., Jo'rayev, T.Q. Soliqlar va soliqqa tortish. – Toshkent: Sharq, 2019.*
5. *International Monetary Fund. Fiscal Regimes for Extractive Industries: Design and Implementation. – Washington, D.C., 2012.*
6. <https://lex.uz/docs/-4674902>
7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
8. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

## **DAVLAT FISKAL (BYUDJET-SOLIQ) SIYOSATINING NAZARIY JIHLARI**

***Asatullayev Xurshid Sunatullayevich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida mudiri,  
i.f.d., professor*

Jahon uzra geosiyosiy ziddiyatlar va savdo-sotiqdagi murakkabliklar, tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishlari, davlatlar o'rtasidagi qarzdorlik muammosiga qaramay 2025-2026 yillarda dunyo iqtisodiyotining barqaror o'sishi prognoz qilinmoqda. Lekin, 2025 va 2026 yillarda global iqtisodiy o'sish 3,3 foizni tashkil etishi 2000-2019 yillardagi tarixiy o'sish sur'ati o'rtacha 3,7 foizdan past ekanligi ko'rsatilmoqda<sup>170</sup>. Aynan, davlatlar moliyaviy barqarorlik va byudjet mustahkamligiga erishish uchun pul-kredit siyosatini yumshatishlari<sup>171</sup>, fiskal siyosat qanday bo'lmasin davlat qarzini barqaror traektoriyaga qo'yish uchun konsolidatsiyani ta'minlashi va vaziyatga yanada moslashuvchan javob berish uchun zarur bo'lgan maydonni tiklashi kerak. Shu sababdan jahonning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy tanglik holatlarini yumshatish va moliyaviy barqarorlikni taminlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatini takomillashtirish hamda iqtisodiy faollikka qaratilgan ilmiy nazariya asoslarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining iqtisodiy faollikka qaratilgan dastak va vositalaridan oqilona foydalanish orqali «...barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash», bu sohada

<sup>170</sup> <http://www.forecast.ru/ARCHIVE/Presentations/DBelousov/WESP2025.pdf> Мировое экономическое положение и перспективы 2025 16 января 2025 г.

<sup>171</sup> International monetary fund world economic outlook international monetary fund Global Growth: Divergent and Uncertain 2025 Jan.